



## ABU LAYS SAMARQANDIYNING ISTEORA ASARI

Rizayev G'

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*II bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *mazkur maqolada ulug` alloma, olim, muhaddis Abu-l-Qosim al-Laysiy as-Samarqandiy, uning ijodi va uning istiora risolasida badiiy uslubining ishlatilishi haqida so`z yuritildi.*

**Kalit so`zlar:** *Istiora, allomalar, mufassirlar, bahs-munozara, metafora, fiqh, tarshih, taxmin.*

Tarixdan bizga ma'lumki bizning diyorumiz buyuk ulamolar yurtidir. Ilmning qaysi sohasida bo'lmasin, har bir soha mutahassislari, mutafakkirlari yetishib chiqqan. Bu borada nafaqat o'z ona tilida, balki, boshqa tillarda ham ulkan ishlar qilingan, kitoblar yozilgan, ta'lif qilingan. Masalan, hadis ilmida imom Buxoriy, kalom ilmida imom Moturidiy, arab tili qoidalari borasida imom Zamaxshariy, meditsina borasida Ibn Sinolar yaqqol misol bo'la oladi.


O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida, xususan, Movorounnahrda buyuk allomalar, muhaddislar, mufassirlar, ilm-ma'rifatda yetuk insonlar to'planib doimiy fikr almashib, tadqiqiy izlanib, ilmiy majlislar, anjumanlar o'tkazib turishgan. Bunday ishlar limning rivojiga katta xissa qo'shishi tabiiydir. Bunday anjumanlar bahs-munozara, o'zaro ilmiy tortishuvlar tarzida o'tkazilgan. Ana shunday ilmiy izlanishlar X asrga kelib yanada rivojlangan, kuchaygan. (1.23)

Hozirgi kunda aruz, poetika ilmi nomlari bilan bizga tanish bo'lgan balog'at ilmi borasida ham yetuk olimlar yurtimizdan yetishib chiqqan. Bu ilm borasida Ahmad Taroziy "Funun al-balog'a" asarini, Az-Zamaxshariy "Al-Mufassal fi sina'at al-arab" asarini, Abu Abdulloh Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asarini, Yusuf Sakkokiyning "Miftohul-ulum" asarini, shuningdek, Abu-l-Qosim al-Laysiy as-Samarqandiyning "Isteora" risolasini keltirish mumkin.

Bu asar mo'jazzgina bo'lgani bilan birga ixcham, sodda va tushunarli, balog'at ilmining ilmul-maoniy qismiga tegishli bo'lgan majoz bobining bir qismi hisoblangan "isteora" haqida yozilgan.

O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida, xususan, Movorounnahrda buyuk allomalar, muhaddislar, mufassirlar, ilm-ma'rifatda yetuk insonlar to'planib doimiy fikr almashib, tadqiqiy izlanib, ilmiy majlislar, anjumanlar o'tkazib turishgan. Bunday ishlar limning rivojiga katta xissa qo'shishi tabiiydir. Bunday anjumanlar bahs-munozara, o'zaro ilmiy tortishuvlar tarzida o'tkazilgan. Ana shunday ilmiy majlislar, izlanishlar X asrga kelib yanada rivojlangan, kuchaygan.

Ilk islom davridan boshlab arablar qo'lyozmalarga, kitoblarga va kutubxonalarga katta e'tibor berganlar. Oltin ilm asri nomi bilan mashhur bo'lgan hijriy III asr, ya'ni





milodiy VIII asrdan boshlab barcha ilm turlarida kitoblar yozilib, ta'lif qilinib, o'rganilib, sharhlar yozilgan. Bir so'z bilan aytganda, ilm rivoji cho'qqiga chiqqan. Shu o'rinda muhim savol tug'iladi:

“Yuqoridagi ma'lumotlarni bilganimizdan so'ng, barcha jabhada kitoblar ta'lif qilingan, shuncha nashrlardan keyin merosimizni ochib beradigan va namoyon etadigan yangi qo'lyozmalar kerakmi?” Soha mutaxassislari bunga javoban:

“Ha, albatta. Bunga bizning ehtiyojimiz ikki maqsadda katta ahamiyatli:

a) bibleografiya va tarjima kitoblarida tez-tez uchraydigan qo'lyozmalarni qidirishda muhim.

b) Ba'zi nashr qilingan kitob, ilmiy nashr va shunga o'xshash ilmiy ishlarimiz kelib chiqishi nomalum bo'lgan yoki to'liq bo'lmagan manbalarda bosilgan. Bundan tashqari, ba'zi bosma kitoblarimizda qayta ko'rib chiqilishi va nashr etilishi kerak bo'lgan qimmatli qo'lyozmalar bo'lgan. Ilmiy intellektual merosning qadr-qimmatini uning merosni tiklashdagi o'rnini, tuyg'usi bizni qo'lyozmalarni tadqiq qilishga chorlaydi. Bu tadqiqotni ahamiyati va maqsadi ham shundadir.

Umuman olganda, bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarga nazar solsak, Al-Laysiy As-Samarqandiylar ko'p o'tgan. Mashhurlari 5 ta bo'lib, al-Lays As-Samarqandiy ismi mutloq ishlatilsa Abu Nasr al-Lays As-Samarqandiy tushuniladi. Abu-l-Qosim al-Laysiy as-Samarqandiy (vafoti hijriy 888-yil deb keltirishadi tarixchilar) haqlarida ma'lumotlar aytarli ko'p emas.(3. 84) Lekin, O'z.R.F.A. Abu Rayxon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar Sharqshunoslik institutida 30 dan ortiq qo'lyozma nusxalari bor. Bu birgina asosiy fondagi qo'lyozma nusxalar. Undan tashqari XIX, XX asrga oid ko'plab toshbosma nusxalari mavjud. Muallifning ismi ikki xil nom bilan keltirilgan. Biri Abu-l-Qosim al-Laysiy as-Samarqandiy bo'lsa, boshqasida “ibn Abu Bakr” ziyodani toppish mumkin. Qo'lyozmalarning aksarlari yaxshi saqlangan, har xil asrlarga tegishli nusxalardir. Asar qisqa va mo'jaz bo'lgani uchun jamlanma asarlar holida to'plam kitoblarda keltirilgan. Qo'lyozmalarning eng yaxshi saqlangan nusxalaridan biri asosiy fondagi raqamli qo'lyozmadir.

Asarning eng sara nusxalaridan biri asosiy fondagi fihristdan 8334 raqamli nusxadir. Kitob 1273 yilda yozilgan. Ushbu kitobda 12 ta asar mavjud bo'lib, turli xil asarlardir. Abu Lays samarqandiyning “isteora' risolasi 5-asar bo'lib, 84-86 sahifalarda kitobga kiritilgan. Ushbu kitob yaxshi saqlangan va qayta tamirlangan. Muqovasi qalin kartondan, bezakli. Chetida o'yib bezak berilgan ramka bor. O'rtada katta naqsh bezak va tepa –pastida ikki (lola) naqshi bor. Sahof joyi teri bilan qoplangan. Kitobdagi asarlar o'ziga xos ikki ramkaga olingan. Avvalgisi sariq tillo rangda va ichkisi qizil rangda.

Abu-l-Qosim al-Laysiy as-Samarqandiyning ushbu “isteora' risolasi “Faroidul-favoid” (ma'nosi - yakkatosh olmos) va “Risolai Samarqandiy” nomlari bilan mashhurdir. Muallif asarni yozishda alohida qismlarga va har bir qismni alohida “fariyda” (ma'nosi – shoda)larga bo'lib keltirgan. Asar 3 qismdan iboratdir:





Birinchi qismda isteora (metafora) va uning turlari haqida ma'lumotlar berilgan. Bu qism 6 "shoda"dan iborat. Har bir bo'lim alohida ajratilib, misollar bilan keltirilgan. Ikkinchi qism metafora haqidagi bahslarga bag'ishlangan. Bu bo'lim 4 "shoda"dan iborat bo'lib, bunda muallif o'z fikrini ham bildirib o'tgan. Bu bobda Az-Zamaxshariy, Yusuf Sakkokiy kabi balog'at ilmi olimlarining fikrlarini ham keltirib o'tgan. Uchinchi qismda metafora (isteora) bilan bog'liq taxmin va tarshih bilan bog'liq masalar haqida bo'lgan. Bu bob 5 ta "shoda"ga ajratilgan. Asar so'nggida noshir tomonidan quyidagi band kiritilgan: "Fozil-u komil, xo'ja Abul-Qosimga mansub isteora haqidagi risolai sharif tamomiga yetdi. 1227-yil." (4. 48)

Sharqshunoslik institutidan tashqari dunyoning boshqa qo'lyozmalar saqlanuvchi joylarda ham bu asarni nusxalari mavjud. Xususan Turkiyaning "Sulaymoniyya" qo'lyozmalar institutida bu asarning nusxasi va unga yozilgan shurhlar ham saqlanadi.

Bevosita isteora haqida to'xtaladigan bo'lsak, u arab tiliga mansub so'zdir. Istiora (Metafora) – asarlarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, ya'ni majoziy ma'noda qo'llash san'ati. Bu san'at so'z ma'nolari ko'chishining bir turi bo'lib, u narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbih san'atiga yaqin turadi. U ko'pincha tashbihi kinoyaga, ya'ni mushab bihi tushirilgan tashbihga teng keladi. Adabiyotshunoslikda istiora tashbihdan kuchli sanaladi.

Istiora (arab. — qarzga olish), metafora — badiiy tasvir vositasi, ko'chim. Istiora ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. U o'xshatilgan va o'xshagan unsurlardangina tashkil topadi. Masalan, sarvqomat, ohuko'z. Istiorada sher, yo'lbars va boshqa kuchli, jasoratli hayvonlarga xos ayrim xususiyatlar, oq, qora sifatlaridagi yaxshilik, yomonlik ma'nolari insonlarning ayrim hislatlarini ta'kidlab ko'rsatish uchun ko'chiriladi (sheryurak, qoraqalb va h. k.). (2.16)

Istiora badiiy asarlarda aks etayotgan narsa, voqea, hodisalarning aniq, ravshan gavdalanib turishida, obrazlar tavsiflarining yorqin berilishida, asar joziba kuchining oshishida nihoyatda muhim o'rin tutadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islom tarixi va ma'naviyat. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.
2. Balog'at ilmi. Zokirjon Sharipov. – Toshkent: "Movorounnahr" nashriyoti, 2014.
3. O'zbekiston ulamolari. Haydarxon Yo'ldoshxo'jayev, Irodaxon Qayumova. – Toshkent: "Movorounnahr" nashriyoti, 2015.
4. O'z.R.F.A. Abu Rayxon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar Sharqshunoslik instituti. Asosiy fond. – 2434 raqamli qo'lyozma.

